

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING TOSHKENT FILIALI**

YANGIBOYEV ABDIMALIK ESHMURODOVICH

**RESPUBLIKAMIZDA YARATILGAN XASHAKI LAVLAGI NAVLARINI
SIGIRLAR SUT MAHSULDORLIGIGA TA’SIRI**

06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление диссертации доктора (DSc) по сельскохозяйственным
наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc) on agricultural
sciences**

Yangiboyev Abdimalik Eshmurodovich

Respublikamizda yaratilgan xashaki lavlagi navlarini sigirlar sut mahsuldorligiga
ta’siri3

Янгибаев Абдималик Эшмуродович

Влияние кормовых сортов свеклы созданных в нашей республике, на молочную
продуктивность коров.....29

Yangiboev Abdimalik Eshmurodovich

The influence of fodder beet varieties created in the republic on the productivity of cow's
milk55

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works58

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SAMARQANDDAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING TOSHKENT FILIALI**

YANGIBOYEV ABDIMALIK ESHMURODOVICH

**RESPUBLIKAMIZDA YARATILGAN XASHAKI LAVLAGI NAVLARINI
SIGIRLAR SUT MAHSULDORLIGIGA TA’SIRI**

06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/Qx326 raqam bilan ro'yxatga olingan

Doktorlik dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Yuldashov Nurbek Ergashevich
veterinariya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Turganbayev Ruzimbay Urazbayevich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor
Shaptakov Erkin Suyunovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor
Baxriddinov Fayoziddin Baxriddinovich
qishloq xo'jalik fanlari doktori

Yetakchi tashkilot: Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti.

Fan doktori (DSc) dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD. 03/30.12.2019.B.05.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «26» 02 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi 19-uy). Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; Veb-sahifa: www.fdu.uz. e-mail: fardu_info@umail.uz.

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (458 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi 19-uy. Tel.: (+99873)244-44-94

Dissertatsiya avtoreferati 2025 - yil «12» 02 kuni tarqatildi.

(2025-yil «12» «02» dagi № 1 raqamli reestr bayonnomasi.)



I.I. Zokirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

U.B. Mirzayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.n., dotsent.

G'. Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo bo'yicha yillik sut ishlab chiqarish hajmi juda katta va yiliga taxminan 900–950 million tonnaga teng. Bu ko'rsatkich har yili o'zgarib turadi, chunki iqlim o'zgarishi, chorvachilik texnologiyalarining rivojlanishi va sutga bo'lgan talab bunga ta'sir qiladi. Eng ko'p sut ishlab chiqaruvchi davlatlar: Hindiston yiliga taxminan 220–230 million tonna, AQSh yiliga taxminan 100 million tonna, Xitoy yiliga taxminan 40–50 million tonna sut ishlab chiqaradi. Braziliya 35-40 million tonna va Rossiya 30-35 million tonnasut ishlab chiqaradi. Bu borada Yevropa davlatlari orasida Germaniya, Fransiya va Niderlandiya yetikchilik qiladi. Sog'ib olingan sutning taxminan 81%i sigir suti, 15%i bufalo suti, qolgan 4%i esa echki, qo'y va tuya suti hissasiga to'g'ri keladi.

Jahonda xashaki lavlagi shirali oziqa sifatida chorva mollarning kuz-qish oylarida asosiy ratsioniga kiritiladi. Xashaki lavlagi namga talabchan, yorug'sevar, sovuqqa chidamli, shiraga boy o'simlik hisoblanadi. Amerika (AQSh, Kanada, Braziliya), Yangi Zelandiya, Afrika (Jazoir, Tunis), Yevropa, shujumladan, Rossiya, Belorussiya, Ukraina, Boltiqbo'yi mamlakatlarida ko'p ekiladi. Dunyo bo'yicha o'rtacha ildizmeva hosildorligi 800-1100 s/gani tashkil etadi. Xashaki lavlagi hosilini oshirishda dehqonchilik ishlari muhim ahamiyat kasb etib, har bir joyda tuproq-iqlim sharoitlariga mos navlarni tanlab ekish va ularni sigirlar sut mahsuldorligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda keyingi vaqtlarda qishloq xo'jalik sohasiga, jumladan chorvachilik sohasiga ham katta e'tibor berilmoqda. Chorvachilik sohasini bundanda rivojlantirish, qishloq xo'jalik hayvonlarining sut va go'sht mahsuldorligini oshirish, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni sezilarli darajada oshirib borish muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun esa chorvachilik sohasida mustahkam oziqa bazasini yaratish, tuproq iqlim sharoitlariga ham bog'liq holda har bir gektar yerdan yetishtiriladigan oziqa birligini oshirib borish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishda Respublikaning sug'oriladigan yerlarida fermer xo'jaliklar shu jumladan, chorvachilik yo'nalishidagi ko'plab fermer xo'jaliklari tashkil etilgan. Bu esa shaxsiy va fermer xo'jaliklaridagi chorva mollari oziqalarga bo'lgan talabini qoplash imkoniyatini yaratib beradi. Chorva mollari shirali oziqalarga bo'lgan talabini qondirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligining yalpi mahsulotlari ulushida chorvachilik sohasi ham alohida o'rin egallab, u aholini qimmatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli chorvachilikni yanada rivojlantirish, qishloq xo'jalik hayvonlari mahsuldorligini oshirish, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirib borish muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi. Buning uchun esa sohada mustahkam oziqa bazasini yaratish, mollarni to'la qiymatli oziqlantirish bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xashaki lavlagi chorvachilikda, chorva mollari, ayniqsa, sudor qoramollar ratsionida muhim ahamiyatga ega, chunki u tarkibida uglevodlar ko'pligi bilan ajralib turadi. Uning oziqaviy qiymati tarkibidagi uglevodlar, azotsiz ekstrakt moddalar, mineral tuzlar va vitaminlar bilan aniqlanadi. Chorvachilikda kuz-qish mavsumida

xashaki lavlagi asosiy shirali oziqalardan biridir. Bundan tashqari xashaki lavlagini chorva hayvonlari ratsioniga qo‘shib berish orqali ularda dag‘al va konsentrat oziqalarning hazmlanishi ham yaxshilanadi. Demak, qoramollarda sut mahsuldorligini yaxshilashda xashaki lavlagi ildizmevalari juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Sut ishlab chiqarishning ko‘payishi global oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi, ammo bu sohaga iqlim o‘zgarishi va ekologik ta‘sir masalalari ham ta‘sir ko‘rsatmoqda. Respublikamizda so‘nggi yillarda chorva mahsulotlarini ishlab chiqarishni oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №PQ-120 sonli 2022-yil 8-fevraldagi qarorida “chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish hisobiga oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini keng joriy etish”¹ kabi qator chora tadbirlar ishlab chiqilishi belgilangan. Mazkur yo‘nalishdagi barcha me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: Ushbu muammolarga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Chorvachilikda oziqalar tarkibidagi uglevodlar sog‘in sigirlar uchun to‘yimli va mineral moddalarning hazmlanishi muhim ahamiyatga ega. Ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy ishlar olib borishgan. Bulardan Sh.A.Akmalxonov, M.I.Ashirov, U.N.Nosirov, B.M.Xalikov, B.D.Allashev, A.P.Kalashnikov, S.N.Xoxrin, K.K.Karibayev, D.Q.Yuldashev, I.Kalyujniy, V.Kumarin, A.Nikitenkov, V.Shiryayev, V.Valeyev, L.Bill, R.Jonson, K.Dolga, A.Goombe, P.Mandebvu, C.Ballard, L.M.Trevaskis, W.J.Fulkerson, Hall, C.Larson, R.Nekrasov, M.Varenikovlardir. Uglevodlarning chorva mollari mahsuldorligi, mahsulotlari sifati, oziqalarning so‘rilishi va hazmlanishiga ta‘sirlari yoritilib ham berishgan. Bu olimlarning ilmiy maqolalarida uglevodlarning ratsionlarda yetishmasligi dastlab ratsionning to‘yimli moddalarni so‘rilishi va hazmlanishiga keyinchalik uning oqibatida chorva mollarining mahsuldorligi tushib ketishi va mahsulotlarning sifatini yomonlashuvi kuzatilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. Ildizmevali oziqalarni chorva mollariga yedirishga tayyorlash ustida ko‘pgina olimlar, jumladan X.Uzoqov, E.Rustamov, S.N.Shuxanov, P.N.Kuznetsov, V.M.Martinov, S.A.Nagorniy, V.V.Trufanov, S.A.Naydanov, V.A.Puchkovlar ilmiy ishlar olib borishgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya bo‘yicha tadqiqot ishlari 2020-2022-yillarda I-OT-2020-23 “Toshkent viloyati turli tuproq-iqlim sharoitlarida kasalliklar va zararkunandalarga chidamli oziqabop lavlagining O‘zbekiston-83 va Hosildor navi birlamchi urug‘chiligini tashkil etish va viloyatni yuqori avlod urug‘lar bilan ta‘minlash” mavzusidagi innovatsion hamda 2021-2022-yillarda bajarilgan “Turli tuproq iqlim sharoitlarida kasallik va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №PQ-120 sonli 2022-yil 8-fevraldagi qarori

zararkunandalarga chidamli oziqabop lavlagining O‘zbekiston-83 navi birlamchi urug‘chiligini tashkil etish” mavzusidagi tijoratlashtirish loyihalari ish rejalariga bog‘liq holda olib borildi.

Tadqiqotning maqsadi Respublikamizda yaratilgan O‘zbekiston-83 va Hosildor navli xashaki lavlagining ildizmevasi bilan oziqlantirish orqali II-laktatsiyadagi sog‘in sigirlar ratsionlarida kuz-qish oylarida aniqlanadigan oqsil-qand nisbatining buzilishini, sog‘in sigirlarning kuz-qish oylarida sut mahsuldorligini oshirish va ularning sut berishida kechadigan moddalar almashinuvi buzilishlarini oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekiston-83 va Hosildor navli xashaki lavlagilarni sog‘in sig‘irlar ratsionida turli miqdorlarda berishda eng maqbul miqdorini qo‘llash natijasida sog‘in sig‘irlar sut mahsuldorligiga ta’sirini aniqlash;

xo‘jalikda qo‘llanilib kelayotgan oziqa ratsionini va sog‘in sigirlar sut mahsuldorligini tahlil qilish;

tajribadagi sigirlarining sutdorlik koeffitsiyentini aniqlash;

tajribadagi sigirlarning oziqasiga O‘zbekiston-83 va Hosildor navli xashaki lavlagini qo‘shib berilganida sut bilan qoplash xususiyatlarini o‘rganish;

O‘zbekiston-83 va Hosildor navli xashaki lavlagilarni oziqalar tarkibini oziqa laboratoriyasida analiz qilish;

sog‘in sigirlar ratsionida O‘zbekiston-83 va Hosildor navli xashaki lavlagilarni qo‘llashning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekt Toshkent viloyati Qibray tumani “Saman-Samo” naslchilik fermer xo‘jaligidagi golshtinlashtirilgan qora-ola zotli qoramollarga O‘zbekiston-83 va Hosildor navli xashaki lavlagini sog‘in sigirlar ratsionida qo‘llash usullari texnologiyalaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti. O‘zbekiston-83 va Hosildor navli xashaki lavlagining ildizmevasini xo‘jalikdagi sog‘in sigirlar ratsionida qo‘llashning sog‘in sigirlar mahsuldorligi va sut sifatiga, sog‘ligiga ta’siri, klinik ko‘rsatkichlari, davrlar kesimida xashaki lavlagi bilan oziqlantirish texnologiyalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Ushbu tadqiqotda umumiy zootexniyada qo‘llaniladigan umumiy usullardan foydalanilgan. Tadqiqot masalalarini o‘rganishda umum zootexnikaviy usullardan: sog‘in sigirlarning asrash, oziqlantirish, sut mahsuldorligi va uning sifati o‘rganildi. Sut sifatini ko‘rsatgichlarini o‘rganish tajribalar boshi, o‘rtasi va oxirida guruhlarining 10 bosh sigirlarining sutlarida yog‘ligi, zichligi, quruq moddasi, yog‘sizlantirilgan quruq sut qoldiqlari, qandini aniqlash laboratoriyada, oziqalar tahlili standart talablari asosida “Zamona Ra’no”, “NANOGEN LAB” MChJ laboratoriyasida va “Laktan” sut tahlilchisida umumqabul qilingan P.T.Lebedev, A.T.Usovich (1976), V.A.Petuxova va boshqalar (1981) usullarida, sigirlar qonining morfologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlari tajriba boshi va oxirida shaklli elementlarini aniqlash – Goryayev kamerasida hisoblash, gemoglobin- Sali usulida, qand – Xagedron-Yensen usulida, oqsil refraktometrda o‘lchashlarda, kalsiy – De-Vaard, fosfor – R.Ch.Yudelevich usulida, ko‘rsatkichlarning statistik qayta ishlashlari: o‘rtacha arifmetik va uning xatosi, guruhlararo farqning ishonchlilik darajasi (Y.K.Merkureva

1970-y., N.A.Plaxinskiy 1969-y.) hamda iqtisodiy (jami xarajatlar, 1 s mahsulotning tannarxi, xarid narxi, sof foyda, samaradorlik darajasi) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor O‘zbekiston-83 va Hosildor navli xashaki lavlagilarning ildizmevasini golshtinlashtirilgan qora-ola zotli sigirlar ratsioniga qo‘shib berilganda sut tarkibidagi quruq modda 0,11-0,15% ga oshganligi isbotlangan;

O‘zbekiston-83 navli lavlagining ildizmevasini golshtinlashtirilgan qora-ola zotli sigirlar ratsioniga qo‘shib berilganda sigirlar qonidagi umumiy oqsillar 0,53 mmol/l ga yoki 13,35% ga oshganligi isbotlangan;

O‘zbekiston-83 navli xashaki lavlagi berib boqilgan tajribadagi har bir sigirdan 90 kunlik dastlabki laktatsiya davomida o‘rtacha 9,9% yog‘, 12,7% oqsil ko‘p olinganligi isbotlangan;

Hosildor navli xashaki lavlagi berib boqilgan tajribadagi har bir sigirdan 90 kunlik dastlabki laktatsiya davomida o‘rtacha 9,9 % yog‘, 11,2 % oqsil ko‘p olinganligi isbotlangan;

O‘zbekiston-83 va Hosildor navli xashaki lavlagidan 12 kg qo‘shib berilgan guruhlardagi sigirlarining sutdorlik koeffitsienti nazorat guruh sigirlardan tegishli ravishda 114,7 kg yoki 15,6 % ga va 90,4 kg yoki 12,2 % ga yuqori bo‘lganligi isbotlangan;

O‘zbekiston-83 navi berib boqilgan I tajriba va Hosildor navi berib boqilgan I tajriba guruhi sigirlari nazorat guruhidagi sigirlarga nisbatan har bir bosh sigirlarning laktatsiya mobaynida 1852800,00 so‘m ko‘p xarajat qilingan bo‘lib, iqtisodiy samaradorlik darajasi I guruhda 26,8 % va II tajriba guruhda 21,2 %ni, nazorat guruhiga nisbatan 6,5 va 0,9 %ga oshganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xashaki lavlagini sut berish davrida sog‘in sigirlar sut mahsuldorligi va sutining kimyoviy tarkibi tahlil qilingan;

sutning kimyoviy tarkibi aniqlangan, kuz-qish davrida sigirlarlarning klinik, gematologik ko‘rsatkichliklari va iste‘mol qilgan oziqasini mahsulot bilan qoplash darajalari aniqlangan;

davrlar kesimida oziqlantirishning sut mahsuldorligi bilan bog‘liqligini tahlil qilingan hamda iqtisodiy samaradorligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Ilmiy tadqiqot natijalari hamda birlamchi hujjatlarda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar univertitetining Toshkent filiali va Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining aprobatiya komissiyalari tomonidan ijobiy baho berilganligi; barcha eksperimental ma‘lumotlarning statistik tahlildan o‘tkazilganligi; olingan ilmiy natijalarning ishlab chiqarishga joriy etilganligi; tadqiqot natijalarining respublikamiz va chet ellarda o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama etilganligi va ma‘qullanganligi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda ilmiy maqolalar chop etilganligi olingan natijalarning haqqoniyligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sut yo‘nalishidagi sigirlar ratsioni xashaki lavlagi hisobiga uglevodli qismini yaxshilash hisobiga sog‘in sigirlarning sut mahsuldorligi ko‘rsatkichlarini

takomillashtirish, mahsulot sifatini yaxshilashning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa turli sutdor sigirlarning sut mahsuldorligi irsiy imkoniyatlarini namoyon etishini oshirish, olingan sut mahsulotlari birligiga oziqa sarfini kamaytirish, yuqori sifatli sut ishlab chiqarishni ko‘paytirishda ilmiy asoslangan davrlar kesimida oziqlantirish usullarining samaradorligini aniqlashda o‘z aksini topadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xashaki lavlagi O‘zbekiston-83 va Hosildor navlari ildizmevasi sigirlar sut mahsuldorligiga ta’siri bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

Sog‘in sigirlarga kuz-qish oylarda asosiy ratsionning 10% ni Respublikamizda yaratilgan O‘zbekiston-83 va Hosildor navli xashaki lavlagi ildizmevalari bilan oziqlantirish Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi “Saman-Samo” fermer xo‘jaligida joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 20.11 dagi 02/23-651-sonli ma’lumotnomasi). Natijada har bir bosh sigirdan 3849250 so‘m sof foyda olingan. Joriy qilingan ish natijalari asosida olingan solishtirma iqtisodiy samaradorlik ming so‘m xarajatga 1268 so‘mdan daromad olingan.

Sog‘in sigirlarga kuz-qish oylarda asosiy ratsionning 10% ni Respublikamizda yaratilgan O‘zbekiston-83 va Hosildor navli xashaki lavlagi ildizmevalari bilan oziqlantirish Yangiyo‘l tumani “Jamol ota chorva nasl” fermer xo‘jaligida joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 20.11 dagi 02/23-651-sonli ma’lumotnomasi). Natijada har bir bosh sigirdan 3026650 so‘m sof foyda olingan. Joriy qilingan ish natijalari asosida olingan solishtirma iqtisodiy samaradorlik ming so‘m xarajatga 1212 so‘mdan daromad olingan.

Sog‘in sigirlarga kuz-qish oylarda asosiy ratsionning 10% ni Respublikamizda yaratilgan O‘zbekiston-83 va Hosildor navli xashaki lavlagi ildizmevalari bilan oziqlantirish Yangiyo‘l tumani “Muxtor ota nabiralari” fermer xo‘jaligida joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 20.11 dagi 02/23-651-sonli ma’lumotnomasi). Natijada har bir bosh sigirdan 3456780 so‘m sof foyda olingan. Joriy qilingan ish natijalari asosida olingan solishtirma iqtisodiy samaradorlik ming so‘m xarajatga 1244 so‘mdan daromad olingan.

Sog‘in sigirlarga kuz-qish oylarda asosiy ratsionning 10% ni Respublikamizda yaratilgan O‘zbekiston-83 va Hosildor navli xashaki lavlagi ildizmevalari bilan oziqlantirish Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani “Kesh Diyorbek chorva baraka” xo‘jaligida joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 20.11 dagi 02/23-651-sonli ma’lumotnomasi). Natijada har bir bosh sigirdan 2926650 so‘m sof foyda olingan. Joriy qilingan ish natijalari asosida olingan solishtirma iqtisodiy samaradorlik ming so‘m xarajatga 1156 so‘mdan daromad olingan.

Sog‘in sigirlarga kuz-qish oylarda asosiy ratsionning 10% ni Respublikamizda yaratilgan O‘zbekiston-83 va Hosildor navli xashaki lavlagi ildizmevalari bilan oziqlantirish Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani “GREAT GOLD GAZ” oilaviy korxonasida joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 20.11 dagi 02/23-651-sonli ma’lumotnomasi). Natijada har bir bosh sigirdan 3011280 so‘m sof foyda olingan. Joriy qilingan ish natijalari asosida olingan solishtirma iqtisodiy samaradorlik ming so‘m xarajatga 1196 so‘mdan daromad olingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali (2022-2024), xalqaro konferensiyalarda, respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda, yillik hisobot yig'ilishlarida muhokamadan o'tkazilib, ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlarida 8 ta, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 14 ta, shundan xorijiy jurnallarda 6 tasi chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosalar, ishlab chiqarishga tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 199 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy ish bo'yicha bajarilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati ilmiy jihatdan asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obykti hamda predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilgan muassasaning ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinishi hamda dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "**Adabiyotlar sharhi**" deb nomlangan birinchi bobida Xashaki lavlagi engil hazm bo'ladigan, qoramollarda sutni ko'paytiradigan oziqa ekini. Xo'jaliklarda sut beradigan qoramollar ratsionida xashaki lavlagi 4-5 % ga yetadi. Lavlagi ildizmevasi foydali ma'danli moddalar, vitaminlardan C, B, B₁, B₂, PP va karotinga boy. Ildizmevalar hazmlanishi bo'yicha yaylov o'tlaridan qolishmaydi, dag'al oziqalarning hazmlanishini yengillashtiradi. Konsentrat yemni tejashga imkon beradi hamda nasl berishni yaxshilaydi.

Chorvachilikda oziqa bazasini mustahkamlashda xashaki lavlagining ahamiyati katta hisoblanadi. 1 kg xashaki lavlagi ildizmevasida 0,11-0,12 oziqa birligi, 9 g hazmlanuvchi protein, 0,40 g kalsiy, 0,30 g fosfor mavjud. 1 kg bargpoyasida 0,10-0,11 oziqa birligi, 21 g hazmlanuvchi protein, 1 kg nimqand lavlagi bargpoyasida 0,16 oziqa birligi, 19 g hazmlanuvchi protein mavjud

Ushbu birinchi bobda sigirlar sut mahsuldorligiga xashaki lavlagi ildizmevasining ta'siri hamda urug'ini jadal usulda yetishtirish texnologiyasi bo'yicha, jumladan, mavjud oziqa ratsionlarida uglevodlarning roli va ahamiyati, ular yordamida kuz-qish davrida ratsionlarning oqsil-uglevodlar nisbatini yaxshilash yo'llari, oziqlantirishda sog'in sigirlar ratsionlarida ugevodli oziqlantirish holati bahosi, chorva mollari uchun ugevodli oziqalar tayyorlash holati bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar qisqa sharhlangan.

Dissertatsiya ishining "**Tadqiqotlarni o'tkazish manbai**" deb nomlangan ikkinchi bobida tajribalar olib borilgan hududning jo'g'rofik joylashishi, qisqa tavsifi, iqlim sharoitlari, shuningdek, tadqiqot predmetlari, tadqiqotlar olib borish uslublari, hamda tadqiqotning ilmiy yangiliklari to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqotlarning o‘tkazish uslublari**” nomli uchinchi bobida O‘zbekiston-83 va Hosildor navli xashaki lavlagini II-laktatsiyadagisog‘in sigirlar ratsionida qo‘llash orqali, sigirlarning sut mahsuldorligi va sutining sifat ko‘rsatgichlariga ta’siri parametrlari aniqlandi. Sog‘in sigirlar ferma binosida oziqlantirish va yayratish maydonchalarida tabiiy yorug‘lik va quyosh nuridan unumli foydalangan holda parvarish qilindi. Tajribadagi sog‘in sigirlar sutining sifat ko‘rsatgichlarini o‘rganish uchun tajriba boshi, tajriba o‘rtasi va tajriba oxirida har guruhlardan (5) bosh sigir sutining yog‘liligi, zichliligi, quruq moddasi, yog‘sizlantirilgan quruq moddasi qoldiqlari, qantini aniqlash-laboratoriyada “Laktan” qurilmasida standart talablari asosida tahlil qilinadi.

1- jadval.

O‘zbekiston-83 navli xashaki lavlagi berib boqilgan tajriba guruhidagi sigirlarga II laktatsiya davomida oziqalar sarfi (o‘rtacha bir boshga)

Oziqalar va ularning to‘yumliligi	Guruhlar		
	Nazorat	I tajriba	II tajriba
Bug‘doy somoni	354	354	354
Turli o‘t pichanlari	545,9	545,9	545,9
Makkajo‘xori silosi	1342,6	1342,6	1342,6
Beda senaji	907,3	907,3	907,3
O‘zbekiston-83 navli xashaki lavlagi	540	1080	900
Bug‘doy kepagi	265,5	265,5	265,5
Paxta shroti	94,4	94,4	94,4
Oziqa tarkibi			
Quruq modda, kg	1889	1959,1	1935,7
Oziqa birligi	1223	1287,5	1265,9
Energiya almashinuvi MDj	12224,7	12781,4	12778,4
Xom protein, kg	279,2	286,2	283,8
sh.j. hazmlanuvchi protein, kg	141,9	146,7	145,1
Xom yog‘, kg	60,5	61,04	60,8
Xom klechatka, kg	520,8	525,6	524
Azotsiz ekstrativ moddalar (AEM), kg	859,1	906,1	890,4
sh.j.shakar, kg	71,8	93,4	86,2
Kalsiy, kg	18,5	18,7	18,6
Fosfor, kg	6,43	6,69	6,6

Dissertatsiyaning **“Sigirlarning mahsuldorligini oshirishda shirali oziqlarning ahamiyati”** nomli to‘rtinchi bobining 1 bo‘limida tajriba guruhidagi sigirlarni oziqlantirish nomi bo‘limida tajriba davomida xo‘jalikda foydalanilgan ratsion ma‘lumotlari va tahlili keltirilgan. Sog‘in sigirlarning 90 kunlik sog‘ish davomida sarflangan oziqalar miqdori va ularning to‘yimlilikini o‘rganilgan.

Sog‘in sigirlarning to‘yimli moddalarga bo‘lgan talabi ularning sut mahsuldorligi, sutning yog‘iligi, tirik vazni, va semizlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Sigir tug‘gandan so‘ng, dastlabki kunlarda sut tarkibidagi to‘yimli moddalar ratsiondagi to‘yimli moddalar yig‘indisidan yuqori bo‘ladi. Sigirlar tug‘gandan so‘ng qo‘yidagi tartib bilan oziqlantirishga alohida e‘tibor berish kerak. Uchinchi va to‘rtinchi kunlardan boshlab ratsion tarkibiga asta-sekinlik bilan shirali oziqalardan silos, senaj, ildizmevalilar, yozgi paytda ko‘k o‘tlar qo‘shib beriladi, bundan tashqari ratsionning energetik qiymati konsentrat oziqalar bilan tenglashtiriladi. Uglevodlar organizm uchun yaxshi energiya manbai, modda va energiya almashinuvida katta ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun uning ta‘minlanganligini nazorat qilish maqsadga muvofiq. Bunda ratsion tarkibida qand, kraxmal va xom kletchatka aniqlanadi. Qandning proteinga bo‘lgan nisbati me‘yorda bo‘lishi uchun 1 oziqa birligiga 80-120 g qand to‘g‘ri kelishi kerak yoki qand-protein nisbati 0,8-1,2 ga teng bo‘lishi kerak. Yengil hazmlanuvchi uglevodlarning (kraxmal va qand) xom kletchatkaga bo‘lgan nisbati 1,5-1,6 marotaba ko‘p bo‘lishi katta qorinda mikrofloraning o‘rin almashmaydigan aminokslatlar biosentiziga ijobiy ta‘sir etib, uchuvchi yog‘lar kislotalarning ko‘payishi bilan sutning yog‘lilik darajasi oshadi. Ratsionning energetik qiymatini oshirish quruq modda tarkibida xom kletchatka miqdorini kamaytirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Kunlik sut sog‘imi 8-10 kg tashkil etsa, quruq modda tarkibidagi xom kletchatkaning optimal miqdori 28 %, 20 kg bo‘lsa – 24%, va 30 kg dan yuqori bo‘lsa 20%ni tashkil etishi zarur. Energiya va oziqa moddalari ta‘minotini yaxshilab, xashaki lavlagi sigirlarning uzoqroq muddat davomida yuqori darajada sut berishini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Chorvachilik sohasida sigirlarni yuqori oziqaviy qiymatga ega yem-xashak bilan oziqlantirish hayvonlarning mahsuldorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Xashaki lavlagi (Beta vulgaris var. fodder beet) yuqori energetik tarkibi, shirinlik darajasi va hazm bo‘lishi bilan ajralib turuvchi yem hisoblanadi. Ushbu maqolada xashaki lavlagi yordamida sigirlarni oziqlantirish texnologiyalari va uning sut mahsuldorligiga ta‘siri tahlil qilinadi. Xashaki lavlagini sigirlar ratsioniga me‘yorda kiritish muhim.


Tajribadagi sigirlarga sarflangan oziqalarda I tajriba guruhida har bir oziqa birligiga 112,0 g, II tajriba guruhida 113,9 g va nazorat guruhida 115,7 g hazmlanadigan protein to‘g‘ri keldi. Shuningdek, qand-oqsil nisbati I tajriba guruhida 0,61:1 nisbatga, II tajriba 0,58:1 nisbatga va nazorat guruhi 0,49:1 nisbatga teng bo‘ldi. Xo‘jalikning imkoniyatidan kelib chiqqan holda tajriba ratsionida xo‘jalik ratsionida kuzatilayotgan to‘yimli va mineral moddalar bilan sog‘in sigirlarning talablarini qondirishdagi salbiy holatlar kamaytirildi 1-jadval.

Xashaki lavlagi sigirlarning sog‘in davriga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Uning yuqori energiya kontsentratsiyasi sigirlar uchun sog‘in davrida energiya balansini tiklash, og‘irlikni oshirish va sut ishlab chiqarishga tayyorlanish jarayonini


2-jadval.

Hosildor navli xashaki lavlagi berib boqilgan tajriba guruhidagi sigirlarga II-laktatsiyaning dastlabki 90 kuni davomida oziqalar sarfi (o‘rtacha bir boshga)

Oziqalar va ularning to‘yimliliği	Guruhlar		
	Nazorat	I tajriba	II tajriba
Bug‘doy somoni	354	354	354
Turli o‘t pichanlari	545,9	545,9	545,9
Makkajo‘xori silosi	1342,6	1342,6	1342,6
Beda senaji	907,3	907,3	907,3
Hosildor navli xashaki lavlagi	540	1080	900
Bug‘doy kepagi	265,5	265,5	265,5
Paxta shroti	94,4	94,4	94,4
Oziqa tarkibi			
Quruq modda, kg	1885,4	1946,4	1930,1
Oziqa birligi	1219,9	1275,0	1259,7
Energiya almashinuvi MDj	12220,0	12774,6	12760,1
Xom protein, kg	278,0	286,1	283,4
sh.j. hazmlanuvchi protein, kg	141,5	146,0	490,9
Xom yog‘, kg	60,4	60,6	60,5
Xom klechatka, kg	520,4	525,1	523,6
Azotsiz ekstrativ moddalar (AEM), kg	858,1	905,3	888,6
sh.j.shakar, kg	71,3	92,1	85,8
Kalsiy, kg	18,0	18,5	18,3
Fosfor, kg	6,14	6,43	6,25



1-rasm. O‘zbekiston-83 navli xashaki lavlagi berib boqilgan tajriba guruhlaridagi sigirlar ratsionining tarkibi (ozuqalar to‘yimliliğiga nisbatan % hisobida) nazorat guruhi



2-rasm. O'zbekiston-83 navli xashaki lavlagi berib boqilgan tajriba guruhlaridagi sigirlar ratsionining tarkibi (ozuqalar to'yimligiga nisbatan % hisobida) I tajriba guruhi

3-jadval.

O'zbekiston-83 navli xashaki lavlagi berib boqilgan tajriba guruhlaridagi sigirlarning sog'in davridagi dastlabki 90 kun maboynidagi sut mahsuldorligi

Ko'rsatkichlar	Guruhlar					
	Nazorat		I tajriba		II tajriba	
	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	Cv,%	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	Cv,%	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	Cv,%
Sut miqdori, kg	1557,9 \pm 22,28	7,55	1693,1 \pm 23,14***	9,44	1649,5 \pm 29,43**	21,25
Sut tarkibida-gi yog', %	3,67 \pm 0,07	2,90	3,79 \pm 0,04*	1,60	3,71 \pm 0,06	2,36
Sut tarkibida-gi oqsil, %	3,22 \pm 0,08	2,48	3,35 \pm 0,08*	2,68	3,31 \pm 0,09*	2,43
Sut yog'i chiqimi, kg	57,2 \pm 1,27	2,21	62,9 \pm 1,43**	2,27	61,6 \pm 1,35**	2,18
Sut oqsili chiqimi, kg	50,1 \pm 1,31	2,62	56,5 \pm 1,26**	2,26	53,2 \pm 1,35*	2,53
4 %-li sut miqdori, kg	1424,7 \pm 21,6	5,15	1598,2 \pm 19,2***	4,14	1524,6 \pm 21,1***	5,39

Eslatma: *R<0,05, **R<0,01, ***R<0,001

yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, xashaki lavlagi oziqa moddalari va vitaminlarni samarali o'zlashtirishni ta'minlab, sigirlarning sog'lig'ini qo'llab-quvvatlaydi (2-jadval).

4-jadval.


Hosildor navli xashaki lavlagi berib boqilgan tajriba guruhlaridagi sigirlarning sog‘in davridagi dastlabki 90 kun maboynidagi sut mahsuldorligi

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar					
	Nazorat		I tajriba		II tajriba	
	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	Cv,%	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	Cv,%	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	Cv,%
Sut miqdori, kg	1537,6±25,24	7,46	1662,8±27,11***	9,35	1631,2±29,42**	20,14
Sut tarkibidagi yog‘, %	3,56±0,07	2,81	3,68±0,04*	1,51	3,65±0,05*	2,27
Sut tarkibidagi oqsil, %	3,15±0,04	2,39	3,24±0,07*	2,59	3,21±0,08*	2,32
Sut yog‘i chiqimi, kg	56,3±1,27	2,12	61,9±1,42**	2,24	60,8±1,34**	2,07
Sut oqsili chiqimi, kg	49,7±1,31	2,51	55,3±1,19**	2,18	52,2±1,24*	2,42
4 %-li sut miqdori, kg	1423,9±21,6	5,04	1597,8±19,1****	4,13	1523,9±21,0****	5,28


Eslatma: *R<0,05, **R<0,01, ***R<0,001

3-4-javdal ma’lumotlarini solishtirib qaraydigan bo’lsak bunda 3-jadvalda O‘zbekiston-83 navli xashaki lavlagi bilan oziqlantirilganda sigirlarning sut mahsuldorlik ko‘rsatkichlari aks etgan bo‘lib, 4-jadvalda esa Hosildor navli xashaki lavlagi bilan oziqlantirilganda sigirlarning sut mahsuldorlik ko‘rsatkichlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Bu ikki jadvalni solishtirish natijasida quyidagicha xulosa kelish mumkin. 90 kunlik sut sog‘imi miqdori bo‘yicha barcha guruhlar bo‘yicha sezilarli farqlar



3-rasm. Tajriba guruhlardagi sigirlarning 90 kunlik tabiiy yog‘likdagi va 4-li sut miqdorlari dinamikasi, kg (O‘zbekiston-83 navli).



4-rasm. Tajriba guruhlardagi sigirlarning 90 kunlik tabiiy yog‘likdagi va 4-li sut miqdorlari dinamikasi, kg (Hosildor navli)

5-jadval.

O‘zbekiston-83 navli xashaki lavlagi berib boqilgan sigirlarning II laktatsiyaning 305 kun davridagi sut mahsuldorligi

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar					
	Nazorat		I tajriba		II tajriba	
	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv, %	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv, %	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv, %
Sut miqdori, kg	3612,6±106,1 2	6,85	4226,5±94,75* *	6,57	3834,9±58,76 *	5,57
Sut tarkibidagi yog‘, %	3,65±0,019	2,44	3,79±0,018	2,87	3,71±0,114	4,44
Sut tarkibidagi oqsil, %	3,20±0,052	3,44	3,35±0,037	2,66	3,31±0,034	2,35
Sut yog‘i chiqimi, kg	133,1±2,56	4,32	161,5±1,25**	3,63	143,9±2,13*	3,99
Sut oqsili chiqimi, kg	116,2±1,98	2,94	141,2±1,45**	3,06	127,1±2,24*	4,22
4%-li sut miqdori, kg	3330,6±98,92	6,83	4035,4±86,24* *	5,54	3594,3±62,86 *	4,87
Quruq modda, %	12,81	-	12,50	-	12,41	-
Yog‘sizlantirilgan quruq sut qoldig‘i, %	8,50	-	8,66	-	8,67	-
Sut qandi, %	4,79	-	4,79	-	4,80	-

Eslatma: *R<0,01, **R<0,001

Biz O‘zbekiston-83 navli xashaki lavlagi berib boqilgan sigirlarda sut miqdorining oylar bo‘yicha o‘zgarishini, sog‘in davrining doimiylik koeffitsientini va sut miqdorining pasayish indeksini o‘rgandik, uning natijalari 7-jadvalda keltiriladi.

7-jadval ma’lumotlarining ko‘rsatishicha, har uchala guruhda ham sigirlarning eng yuqori oylik sut miqdori ular laktatsiyasining uchinchi oyida kuzatildi va keyinchalik oylik sut miqdorining birtekis pasayib borishi ko‘zga tashlanadi. Tajribadagi I va II tajriba guruhidagi sigirlarning uchinchi oyida laktatsiya mobaynidagi sut miqdorining tegishli 15,4 va 15,3% ni hamda nazorat guruhidagi sigirlar esa 14,5% ni tashkil qildi.

Shuningdek, barcha guruhlarda sigirlarning sog‘in davri bir tekis kechganligi ko‘zga tashlanadi va laktatsiyaning oltinchi oyigacha yetarli tarzda yuqori darajada bo‘lib sakkizinchi oyga borib, asta-sekinlik bilan pasayib borishi kuzatildi.

Tajriba guruhlaridagi sigirlar oylik sut miqdorining bir tekis o‘zgarishini sut miqdorining pasayish indeksi ham ko‘rsatadi, uning bu ko‘rsatkichni laktatsiyaning eng yuqori o‘ninchi oyidan to‘rtinchi oyiga borib I tajriba guruhda 46,3%, II tajriba guruhda 43,1% va nazorat guruhda 39,8% ga kamaydi.

Sigirlar laktatsiyasining birtekis kechish xususiyatlarini baholashda ularning laktatsiya egri chizig‘ini o‘rganish muhim hisoblanadi.

6-jadval.

Hosildor navli xashaki lavlagi berib boqilgan sigirlarning II laktatsiyaning 305 kun davridagi sut mahsuldorligi

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar					
	Nazorat		I tajriba		II tajriba	
	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	Cv, %	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	Cv, %	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	Cv, %
Sut miqdori, kg	3612,6±106,1 2	6,85	4210,4±94,87* *	5,46	3813,5±57,65 *	4,76
Sut tarkibidagi yog‘, %	3,65±0,019	2,44	3,66±0,014	2,66	3,59±0,110	4,33
Sut tarkibidagi oqsil, %	3,20±0,052	3,44	3,29±0,026	2,65	3,24±0,039	2,27
Sut yog‘i chiqimi, kg	133,1±2,56	4,32	159,7±1,87**	3,52	142,2±2,09*	3,88
Sut oqsili chiqimi, kg	116,2±1,98	2,94	140,8±1,86**	3,05	124,7±2,24*	4,11
4%-li sut miqdori, kg	3330,6±98,92	6,83	3852,5±85,22* *	5,49	3422,6±61,75 *	4,68
Quruq modda, %	12,81	-	12,36	-	12,33	-
Yog‘sizlantirilgan quruq sut qoldig‘i, %	8,50	-	8,57	-	8,53	-
Sut qandi, %	4,79	-	4,72	-	4,69	-

Eslatma: *R<0,01, **R<0,001

Respublikamizda rayonlashtirilgan muhim qoramol zotlaridan biri sut yoʻnalishidagi golshtinlashtirilgan qora-ola zot hisoblanadi. Aholini chorvachilik mahsulotlariga (sut, goʻsht) boʻlgan ehtiyojini qondirishda qoramolchilik tarmogʻi asosiy oʻrinni egallaydi. Shu boisdan golshtin zotining hozirgi kunda turli xil seleksiyaga mansub guruhlari mavjud. Golshtinlashtirilgan qora-ola zotli qoramollarning tashqi tuzilishi fiziologik xususiyatlariga bogʻliq boʻlib, har xil konstitutsiyali sigirlar oʻziga xos gavda tuzilishiga va har xil temperamentiga ega boʻladi. Bu javob reaksiyasi boʻlib, sigirlarning gavda tuzilish va skleti pishiqligiga, chidamliligiga, sharoitga moslashuvchanligiga, hamda mahsulot berish qobiliyatiga qarab baholanadi. Shuning uchun sigirlarning sut mahsuldorligini konstitutsiya tipiga bogʻlab oʻrganish muhim amaliy ahamiyatga ega. Tajribadagi sigirlarning urchitilayotgan sharoitga moslashganlik darajasini va sut mahsuldorligini baholashda ular laktatsiyaning oylari davomida sut miqdorining oʻzgarishini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi.

7-jadval.


Oʻzbekiston-83 navli xashaki lavlagi berib boqilgan sigirlarning laktatsiyasi davomida oylik sut miqdori, sogʻin davrining doimiylik koeffitsienti va sut miqdorining pasayish indeksining oʻzgarishi

Laktatsiya oylari	Nazorat			I tajriba			II tajriba		
	Sut miqdori, kg	Sogʻin davrining doimiylik koeffitsienti	Sut miqdorining pasayish indeksi, %	Sut miqdori, kg	Sogʻin davrining doimiylik koeffitsienti	Sut miqdorining pasayish indeksi, %	Sut miqdori, kg	Sogʻin davrining doimiylik koeffitsienti	Sut miqdorining pasayish indeksi, %
I	451,7	100,0	86,0	530,6	100,0	81,5	490,3	100,0	81,8
II	510,6	113,0	97,2	550,6	103,8	84,6	542,4	108,4	88,6
III	525,5	102,9	-	650,7	118,2	-	620,7	112,9	-
IV	435,5	79,1	79,1	618,6	95,1	95,1	597,4	93,7	93,7
V	419,9	98,7	78,0	540,4	87,4	83,0	536,7	87,3	81,8
VI	395,5	90,4	70,5	425,6	78,8	65,4	420,7	84,4	69,1
VII	336,0	89,3	63,0	340,5	80,0	52,3	335,6	81,5	56,3
VIII	243,5	78,1	49,2	252,4	65,3	34,2	250,8	68,6	38,6
IX	165,7	-	36,3	176,8	-	27,1	171,2	-	22,7
X	128,7	-	28,3	140,3	-	26,2	139,1	-	20,3
Sogʻin davri boʻyicha	3612,6	93,9	-	4226,5	91,1	-	3834,9	92,1	-

Tajriba guruhlardagi sigirlarning tana o'lchamlari, sm

Tana o'lchamlari	Guruhlar (p=10)					
	Nazorat		O'zbekiston-83		Hosildor	
	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	Cv,%	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	Cv,%	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	Cv,%
Yag'rin balandligi	129,3±1,22	2,81	134,3±1,72*	4,06	133,8±1,81*	4,87
Sag'ri balandligi	132,1±1,41	2,88	136,9±1,33*	3,95	136,2±1,61*	4,55
Ko'krak kengligi	49,7±0,42	6,35	52,0±0,49**	5,71	51,3±0,57*	6,75
Ko'krak chuqurligi	69,1±0,41	6,11	72,6±0,49**	6,02	70,3±0,53**	7,46
Ko'krak aylanasi	204,3±1,11	4,75	209,9±1,96* *	4,03	207,5±1,62*	3,13
Tananing qiya uzunligi	148,6±0,84	3,94	152,0±0,58* *	2,78	150,6±0,47*	3,96
Orqa do'ng suyak kengligi	49,7±0,45	9,37	51,7±0,55*	8,71	50,7±0,58*	11,2
Poycha aylanasi	21,1±0,36	2,07	21,8±0,37	2,16	21,6±0,40	3,42

Eslatma: *R<0,05, **R<0,01

**5-rasm. Tajriba guruhlaridagi sigirlarning tana o'lchamlari haqida ma'lumotlar**

1-yag'rin balandligi, 2-sarg'i balandligi, 3-ko'krak chuqurligi, 4-ko'krak aylanasi, 5-ko'krak kengligi, 6-tananing qiya uzunligi, 7-orqa do'ng suyak aylanasi, 8-poycha aylanasi.

Yagrin balandligi sigirlarning eksteryer xususiyatlarini baholashda muhim ko'rsatkichlardan biridir. Bu balandlik sigirning bo'ynidan orqa qismiga o'tadigan chiziqdagi eng baland nuqta (yag'rin) bilan yer orasidagi masofa sifatida o'lchanadi.

Yagʻrin balandligi sigirning umumiy tana kattaligi va gavda massasi haqida tushuncha beradi. Yirikroq sigirlar odatda koʻproq oziqani hazm qila oladi va yuqori mahsuldorlikni koʻrsatadi.


Balandroq yagʻringa ega sigirlar koʻpincha yaxshi rivojlangan koʻkrak qafasiga ega boʻladi, bu esa ularga koʻproq kislorod qabul qilish va samarali qon aylanishi orqali yuqori sut ishlab chiqarishga imkon beradi.

Toʻgʻri va baland yagʻrin sigirning harakatchanligini oshiradi, bu esa koʻp oziqa yeyishi va faol hayot kechirishda foydali hisoblanadi.

9-jadval.

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning tana indekslari, %

Indekslar	Guruhlar		
	Nazorat	Oʻzbekiston-83 I tajriba	Hosildor I tajriba
Uzunoyoqlilik	46,7	46,0	47,6
Choʻzinchoqlilik	114,9	113,3	112,7
Koʻkrakdorlik	72,2	71,7	73,0
Tos-koʻkrak	100,2	100,8	101,4
Zichlilik	137,5	138,3	137,8
Suyakdorlik	16,4	16,4	16,3



6-rasm. Tajribagi qoramollarning eksteryer koʻrsatkichlari

Shuningdek, I va II tajriba guruhdagi sigirlar tanasining tos-koʻkrak qismi yaxshi rivojlanganligi tos-koʻkrak indeksidan ham koʻrinib turibdi. Bu indeks koʻrsatkichi I va II tajriba guruhdagi sigirlarda nazorat guruhdagi sigirlarga nisbatan tegishli ravishda 0,7 va 1,8% yuqori boʻldi.

Sigirlar tanasining mutanosib rivojlanganligini, ularning tana oʻlchamlari asosida hisoblab chiqilgan tana tuzilish indeks koʻrsatkichlari boʻyicha baholash mumkin. 9-jadvalda tajriba guruhlaridagi sigirlarning tana tuzilish indekslari keltiriladi.

10-jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, Oʻzbekiston-83 navli xashaki lavlagi berib boqilgan I tajriba guruhi va Hosildor navli xashaki lavlagi berib boqilgan

